

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.FIL.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**MUMINOVA DILOROM DAVRONOVNA**

**NOMANAVISLIK AN'ANASI VA TURKIY SHE'RIYATDA  
LIRIK JANRLAR TARAQQIYOTI  
(XIV-XV ASRLAR SHE'RIYATI MISOLIDA)**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Muminova Dilorom Davronovna**

Nomanavislik an’anasi va turkiy she’riyatda lirik janrlar taraqqiyoti (XIV-XV asrlar she’riyati misolida) .....	3
--	---

**Муминова Дилором Давроновна**

Традиция написания нома ( <i>послание</i> ) и развитие лирических жанров в тюркской поэзии (на примере лирики XIV-XV веков) .....	21
--	----

**Muminova Dilorom Davronovna**

Tradition of writing noma ( <i>message</i> ) and development of lyrical genres in turkic poetry (based on the 14 <sup>th</sup> -15 <sup>th</sup> centuries lyrics) .....	41
---	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works .....	45
-------------------------------	----

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.FIL.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**MUMINOVA DILOROM DAVRONOVNA**

**NOMANAVISLIK AN'ANASI VA TURKIY SHE'RIYATDA  
LIRIK JANRLAR TARAQQIYOTI  
(XIV-XV ASRLAR SHE'RIYATI MISOLIDA)**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2018.1.PhD/Fil392 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining veb-sahifasida ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) hamda «Ziyonet» axborot-ta’lim portalı ([www.zionet.uz](http://www.zionet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tohirov Sobirjon Qobilovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullaeva Marg‘uba Do‘smitratovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Qobilov Usmon O‘rolovich**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_\_\_» soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: [rector@samdu.uz](mailto:rector@samdu.uz) Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh o‘quv binosi, 1-qavat, anjumanlar zali (105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olinan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**M.Q.Muhiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

**D.B.Xursanov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Sh.A.Hasanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi  
filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida lirik janrlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiy etishida boshqa janrlarning ta’siri masalasi hamda, janrlararo munosabatlarni tadqiq etish borasida ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, janrlar tasnifi va tavsifi takomillashib, adabiy an’analarning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi, lirik qahramon meni, muallif poetik olami kabi bir qator masalalarning yoritilishiga erishilmoqda. Adabiy-nazariy qarashlar asosini tashkil etuvchi noma janriga oid poetik mushohadalar mumtoz janrlarning badiiy-estetik tamoyillari va ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlariga doir umumiy xulosalar chiqarib, bugungi globallashgan ilmiy-nazariy tafakkur tadrijida o’ziga xos janrlar qorishuvi hamda dolzarb ilmiy muammolar yechimini topish imkonini beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz lirik janrlar tadqiqi, xususan, ularning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari hamda bu jarayonda nomanavislik an’anasining o’rni masalalarini yoritish soha taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omillardan sanaladi. Nomanavislik sharq mumtoz she’riyatining muhim bir bosqichida yuzaga kelgan adabiy an’ana bo‘lib, turkiy she’riyatda lirik janrlarning shakllanish (XI-XIII asrlar) hamda kamolot (XV asr) davrlari oralig‘ida ko‘prik vazifasini o’taydi. Shuningdek, ular mazkur davrning ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik qiyofasini ko‘rsatishda ham katta ahamiyatga egadir. Bu esa nomanavislik an’anasining lirik janrlar genezisi, taraqqiyoti va poetikasi, mavzular ko‘lamidagi ahamiyati, mumtoz she’riyatimizning obrazlar tizimidagi an’anaviyligi va o’ziga xosligini o’rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimiz ilm-fanida milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tibor oshganligi tufayli adabiy merosni bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq etish va uning g‘oyaviy-badiiy qimmatini, tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga e’tibor yanada ortdi. Qadimiy adabiy merosimiz ildizlarini tadqiq etish, boy an’analarni, milliy qadriyat va ma’naviy boyligimizni vatan ravnaqi, yoshlar tarbiyasi, inson kamolotiga tatbiq etish bugungi ta’limning bosh vazifalaridan biriga aylandi. Darhaqiqat, “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan, nomalarni lirik janrlar taraqqiyoti kontekstida tadqiq etish dolzarb masalalardan sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagи PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 16-fevraldagи “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagи

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил, 28 декабрдаги “Тараккиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади” мавзуусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил, 29 декабрь.

“Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Sharq mumtoz adabiyotida noma janrining g‘oyaviy-badiiy jihatlarini ilmiy tadqiq etish o‘tgan asr o‘rtalarida boshlangan edi. XIV-XV asrlar fors-tojik, ozarbayjon, o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan mazkur janr namunalari va poetikasiga doir izlanishlar ikki yo‘nalishda davom etganligi kuzatiladi. Birinchisi, nomanavis ijodkorlarning shaxsiyati va adabiy merosiga doir tadqiqotlar bo‘lib, sharqshunos olimlar: G‘.Begdeli, F.Ko‘prulizoda, A.M.Shcherbak, E.N.Najip, I.S.Braginskiy, S.E.Bertels, o‘zbek olimlaridan X.Bektemirov, S.Qosimov, N.Mallaev, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jaev, X.Rasulov, E.Rustamov, Y.Is’hoqov, S.G‘anieva, O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovididinov, R.Vohidov, H.Eshonqulov, E.Fozilov, M.Jamolova, O.Jo‘raev<sup>1</sup> kabilarning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Ushbu tadqiqotlar orasida, xususan, S.Qosimovning ”Xorazmiy «Muhabbatnama»si”, X.Bektemirovning “Исследование языка произведений Юсуфа Амири (I половина XV века)”, M.Jamolovaning “XIV-XV asrlar o‘zbek adabiyotida noma janri” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarini mazkur janr doirasida amalga oshirilgan yaxlit tadqiqotlar sifatida e’tirof etish zarur.

Ikkinci yo‘nalish noma janri namunalarini nashr ettirish ishlari bo‘lib, bu sohada Xorazmiyning «Muhabbatnama», Xo‘jandiyning «Latofatnama», Amiriyning «Dahnama», Sayid Ahmadning «Taashshuqnoma» asarlaridan parchalar dastlab «O‘zbek adabiyoti» 5 tomligining 1-tomida va ba’zi alohida

<sup>1</sup> Бегделе Ғулам Ҳусейн. Авҳадий. Эвъединин haiat ve йарадычылығы. – Баку: 1962; Шербак А.М. Огуз-наме, Мухаббат-наме. ИВЛ, – Москва: 1959; Неджип Э.Н. Предисловие к кн: Хорезми, Мухаббат-наме, – Москва: ИВЛ, 1961; Брагинский И.С. Очерки по истории таджикской литературы. – Сталинабад: 1956; Бертельс С.Э. История персидско-таджикской литературы. – М: 1960; Бектемиров Х. Исследование языка произведений Юсуфа Амири (I половины XV века). Канд. дисс., – Ташкент: 1973; Қосимов С. Хоразмий ва унинг “Мұхаббатнома”си. – Тошкент: 1950; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқитувчи, – Тошкент: 1976; Ҳайитметов А.А. “Навоий ва Юсуф Амирий” // Гулистан 1987. 12-сон, 26-28 б; Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. Фан, – Тошкент: 1974; Расулов X. “XIV–XV асрдаги шеърий номалар”. // Адабий мерос – Тошкент: 1976. 6-сон; Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – Москва: ИВЛ, 1963; Исҳоқов Ё. Жанр наме в узбекской литературе. – В кн.: История узбекской литературы. Том I. – Ташкент: 1987. -С. 126-127; Фаниева С. “Низомий мұғаннийномалари Низомий ва ўзбек адабиёти” // Илмий анжуман материаллари. – Тошкент. ТИУНМБ, 2007. 56-61-б; Фаниева С. “Мұғанний, биёр он навое ғариф...” // Овози тојик 12-декабрь, 2007; Фаниева С. “Шарқ мумтоз адабиётида мұғаннийномалар” // Шарқ тароналари – Тошкент: 2007, 62-66 б; Жамолова М. XIV–XV асрлар ўзбек адабиётида нома жанри. Номз. дисс. НамДПИ 1992; Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. Ўқитувчи, – Тошкент: 1979; Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. – Тошкент: 2006; Фозилов Э. Ходжанди Латофат-наме. – Тошкент: 1976; Жўраев О. “Мумтоз адабиётда мұғаннийнома”. Тамаддун, – Тошкент: 2016. -3 б.

nashrlarda<sup>1</sup>, “Navoiyning nigohi tushgan”<sup>2</sup>, “Muborak maktublar” kitoblarida<sup>3</sup>, shuningdek, nomalarning to‘liq matni “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari”<sup>4</sup> tarkibida nashr ettirildi.

Ammo turkiy she’riyatda noma janrining shakllanish bosqichida bo‘lgan boshqa lirkilari masalasi yaxlit monografik planda o‘rganilmagan. Mazkur ilmiy muammoning mavjudligi adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiytadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta’sir masalalari” mavzusidagi ilmiy ishlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Mumtoz adabiyotimizda XIV-XV asrlarda yaratilgan nomalar va ularning g‘azal, qit’a, fard, masnaviy, tarje’, soqiynoma singari lirkilari rivoji va taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash, noma va g‘azal janrlariaro munosabat va bu munosabatning ikkala janr rivojiga ta’siri masalalarini ochib berishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

noma janrining mumtoz poetikaga kirib kelish tarixi, genezisi va geneologiyasiga oid ma’lumotlarni ochib berish;

turkiy she’riyatda ayrim lirkilari paydo bo‘lishi va taraqqiy etishida noma janrining o‘rnini aniqlash;

nomalarning turkiy she’riyatdagi o‘rni va g‘azal janri taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilab berish;

noma janriga xos bo‘lgan mavzu va g‘oyalar, obrazlar badiiyatini lirkilari poetikasi kontekstida yoritish;

nomalar tarkibidagi g‘azal, qit’a, fard, masnaviy, tarje’, soqiynoma singari janr hamda shakllar lirkilari tarixi va taraqqiyotining muhim bosqichi ekanligini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning ob’ektini** Xorazmiy, Xo‘jandiy, Yusuf Amiri, Sayid Ahmad, Sayid Qosimiyligiga mansub nomalar, ularning “Navoiyning nigohi tushgan”, “Muborak maktublar” va “O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari” to‘plamlaridagi matnlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** XIV-XV asrlar adabiyotida yaratilgan nomalar va ularning tarkibidagi lirkilari qiyosiy-tipologiyasi va poetik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, statistik, qiyosiyatixiy metodlar, shuningdek, ilmiy kuzatuvning sharh va talqin usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

<sup>1</sup> Хоразмий. Муҳаббатнома. – Т.: 1959.

<sup>2</sup> Навоийнинг нигохи тушган. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, – Тошкент: 1986.

<sup>3</sup> Муборак мактублар. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат, – Тошкент: 1987.

<sup>4</sup> Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 11-жилд (XIV–XV асрнинг бошлари). Фан, – Тошкент: 2007.

noma janrining XIII asr fors-tojik adabiyotida paydo bo‘lganligi, o‘zbek mumtoz adabiyotida XIV-XV asrlarda taraqqiy etganligi, janr, mavzu va badiiy obrazlarning sinkretik xususiyatlari hamda vazn, qofiya, novatorlik kabi poetik jihatlari ochib berilgan;

noma janriga mansub asarlarning sarlavha, hamd va na’tlar, hikoyatlar kabi kompozitsion qurilishga egaligi, hazaj bahrining vazn imkoniyatlari takomillashganligi, mualliflar g‘oyaviy-badiiy niyatini talmeh, tanosub, tajohil-ul orif singari badiiy san’atlar vositasida ifoda etganligi dalillangan;

XIV-XV asr o‘zbek she’riyatida yaratilgan “Muhabbatnama”, “Dahnama”, “Taashshuqnama” kabi noma janriga mansub asarlarda g‘azal, qit’a, fard singari janrlar takomillashgani, ularning taraqqiyoti aynan nomanavislik an’anasi bilan bog‘liqligi, nomalar mazkur janrlar takomiliga bevosita ta’sir etganligi isbotlangan;

o‘zbek mumtoz she’riyatidagi nomalar tarkibida masnaviy, soqiynoma, tarje’band kabi janrlarning ilk namunalari o‘z aksini topganligi, ularning nomanavislik an’anasi ta’sirida yuzaga kelganligi asoslangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqotning tahliliy materiali hamda chiqarilgan ilmiy xulosalar kelgusida ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar uchun yordamchi manba bo‘lib xizmat qilishi, undan o‘zbek adabiyoti tarixi va adabiyot nazariyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yaratish uchun foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;

tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar o‘zbek adabiyoti tarixining XIV-XV asrlar adabiyoti va nomanavislik an’anasiga doir mavzularini takomillashtirish, yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilganligi asoslangan;

tadqiqot o‘zbek mumtoz she’riyatida lirkjanrlar tarixi va poetikasiga doir amaldagi tasavvurlarni bir qadar takomillashtirishga xizmat qilganligi yoritilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda muammoning aniq qo‘yilganligi, ijodkorlar tadqiqiga bag‘ishlangan risolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar va umuman mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar asosida amalga oshirilganligi, mavzu ilmiy-qiyosiy tahlil asosida yoritilganligi tadqiqot natijalarining ishonchlilagini tasdiqlaydi. Shuningdek, dissertatsiya natijalarining ishonchliligi tadqiqot yo‘nalishi va ilmiy izlanishlar mohiyatidan kelib chiqqan holda tanlangan ilmiy metodlar bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mumtoz adabiyot, xususan, XIV-XV asrlar adabiyoti tarixini yangi fikrlar bilan boyitishda, adabiyot nazariyasi fanining janr imkoniyatlari, nomanavislikda an’ana va novatorlik, mumtoz asarlarning poetik xususiyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati undagi xulosalardan “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Mumtoz poetika”, “Mumtoz she’riy janrlar” kabi mutaxassislik va tanlov fanlarini o‘qitishda, oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmalar, majmualar yaratish va ularni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nomanavislik an’anasi va turkiy she’riyatda lirkjanrlar taraqqiyotini tadqiq etishda olingan amaliy natijalar asosida:

Badiiy tafakkur taraqqiyotida folklor katta ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur adabiy xazina lirik janrlarning taraqqiyoti uchun ham asosiy manba vazifasini o‘taganligi ma’lum. Shu bois noma janriga mansub asarlarning sarlavha, hamd va na’tlar, hikoyatlar kabi kompozitsion qurilishi, ularda hazaj bahrining vazn imkoniyatlari takomillashganligi, mualliflar g‘oyaviy-badiiy niyatini talmeh, tanosub, tajohil-ul orif singari badiiy san’atlar tadqiqi asosida olingan ilmiy natijalardan FA-F1-GOO2 “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida foydalanildi (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 7-sentabrdagi 17-01-173-son ma’lumotnomasi). Natijada noma janrining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ta’riflab berishga xizmat qilgan.

Sharq xalqlari adabiyotida muhabbat mavzusida yozilgan lirik asarlarni asosan noma va g‘azallar tashkil qilgan. Bu janrlar dunyoviy va ilohiy muhabbat g‘oyalarini kuylashda vosita bo‘lib xizmat qildi. XIV-XV asr o‘zbek she’riyatida yaratilgan “Muhabbatnama”, “Dahnama”, “Taashshuqnama” kabi noma janriga mansub asarlarda g‘azal, qit’a, fard singari janrlar takomillashgani, ularning taraqqiyoti aynan nomanavislik an’anasi bilan bog‘liqligi, nomalar mazkur janrlar takomiliga bevosita ta’sir etgan. Ushbu masalalar tadqiqi natijalaridan FA-F1-OO5 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzuidagi fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 29-iyuldaggi 17-01-158-son ma’lumotnomasi). Olingan natijalar noma janrining badiiy-estetik jihatining o‘ziga xosligi, mavzu ko‘lami va didaktik ahamiyatini ohib berishga xizmat qilgan.

Noma janrining XIII asr fors-tojik adabiyotida paydo bo‘lishi, uning o‘zbek mumtoz adabiyotida XIV-XV asrlardagi taraqqiyoti, janr, mavzu va badiiy obrazlarning sinkretik xususiyatlari, vazn, qofiya, novatorlik kabi poetik jihatlari asosida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat bo‘limida tashkil etilgan “Sadoqat” ijodiy to‘garagi va adabiy kechalarda ushbu tadqiqotning natijalaridan foydalanilgan. (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2021-yil 27-oktabr 01-03/1266-son ma’lumotnomasi). Ushbu amaliy natijalar yosh shoir va shoiralarga mumtoz adabiyot namoyandalarining hayoti va ijodini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘zbek mumtoz she’riyatidagi nomalar tarkibida masnaviy, soqiynoma, tarje’band kabi janrlarning ilk namunalari o‘z aksini topganligi, ularning nomanavislik an’anasi ta’sirida yuzaga kelganligi hamda turkiy she’riyatning o‘ziga xosliklari bo‘yicha olingan xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvida foydalanilgan (“O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2021-yil 30-sentabrdagi 01-13-1544-son

ma'lumotnomasi). Olingen amaliy natijalar teletomoshabinlarni XIV-XV asr nomalari bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot yuzasidan jami 17 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 134 sahifadan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingen natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O'zbek adabiyotida noma janrining shakllanishi va taraqqiyoti**” deb yuritiladi. Ushbu bob to'rt fasldan tarkib topgan. Bobning “*Noma janri va uning o'r ganilish tarixi*” deb nomlangan birinchi faslida noma haqidagi ilk nazariy fikrlarning paydo bo'lishi, takomili, fors-tojik va turkiy adabiyot tarixida noma so'zi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab asarlarning mavjudligi va ularning amaliy ahamiyati tadqiq etilgan.

Nomanavislik fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotining eng go'zal va boy an'analaridan biridir. Uning ilmiy tadqiqi ancha uzoq tarixga ega bo'lib uni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin:

1. Nomanavislik an'anasi bilan bog'liq ilmiy muammolar tadqiqi.
2. Adabiy manbalarni nashr ettirish va matnshunoslik muammolari.

Sharq adabiyoti tarixida “noma” so'zi qatnashuvchi asarlar nihoyatda ko'p bo'lib, ularning mukammal tafsifi va tasnifi akademik B.Valixo'jaevning “O'zbek epik poeziyasini tarixidan” monografiyasida keltirilgan. Mazkur tadqiqotda bunday asarlar yozilish shakli (nasr, nazm va aralash usul), mazmun-mohiyati (badiiy, tarixiy, ilmiy, memuar), mavzusi (sayohat tafsiloti, avtobiografik, ishqiy maktub, musiqa, ijtimoiy masalalar va hokazo) assosida tasnif qilingan.<sup>1</sup>

Jumladan, nazmda yaratilgan “noma”lar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Noma – epik poemalar (dostonlar) va she'riy hikoyalar sikli (turkumi) ma'nosida.
2. Noma – masnaviy poema (doston) ma'nosida.

<sup>1</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. Фан, – Тошкент: 1974. 8-20 бетлар.

3. Noma – she’riy maktub formasida (shaklida) yozilgan asar ma’nosida.

Olim ta’kidlaganlaridek, mazkur asarlar shakl va mazmun jihatdan xilma-xil bo‘lib, ularni “janr nuqtai nazaridan bir andoza bilan o‘lhash, hammasiga umumiy bir qoida chiqarish qiyin”. Binobarin, janr atamasi sifatida “noma” so‘zi yuqoridagi tasnifning uchinchi bandida nazarda tutilgan asarlarga nisbatangina qo‘llanadi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida “Muhabbatnama” janri xususida shunday yozadi: “Va yana ham turk ulusida bir suruddurkim, ani “Muhabbatnama” derlar va ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va holo matrukdur, budur, bayt:

Meni og‘zing uchun shaydo qilibsen,  
Manga yo‘q qayg‘uni paydo qilibsen”.<sup>1</sup>

E’tibor berilsa, hazrat Navoiy surud, ya’ni qo‘sinq nav’i deya e’tirof etgan “Muhabbatnama” poetik jihatdan noma janriga hamohang. Binobarin, Alisher Navoiy mazkur adabiy janrning ilk tadqiqotchisi sifatida e’tirof etilish mumkin.

“Noma” adabiyotshunoslik istilohi sifatida yirik asarlar tarkibidagi timsollarning o‘zaro yozishmalari ma’nosini ham ifodalaydi.

Adabiyotshunos olim N.Rahmonov ta’kidlashicha, uning ilk namunalardan biri o‘zbek qahramonlik dostoni bo‘lmish “Alpomish” dostonida mavjud<sup>2</sup>. Olim, shuningdek, “O‘g‘uznomal” dostonida O‘g‘uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga “bildirguluk”, ya’ni noma yuborishi, “Qutadg‘u biling”da “Oyto‘ldining Elikka nasihatnama yozib qoldirishi” kabilarni ham misol tariqasida keltiradi.

Bunday nomalarning eng qadimiy namunalari Faxriddin Gurgoniyning “Vis va Romin”, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin”, Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostonlari tarkibidagi nomalar bo‘lib, jahon adabiyotshunosligida ko‘plab olimlar bunga doir fikr-mulohazalar bildirgan.

Bobning “Nomanavislik an’anasining ildizlari va shakllanishi” deb nomlangan ikkinchi faslida “noma”ning adabiy janr sifatida fors-tojik adabiyotida shakllanishi va taraqqiyoti ilmiy manbalarda kuzatildi.

“Noma” istilohi lug‘atlarda – navishta, ruq’a, xat, maktub”<sup>3</sup> sifatida izohlanadi. Nomalar turli xil mavzularda yozilib, keyinchalik, sevishganlarning o‘rtasidagi she’riy maktublar (nomalar) shaklida va mazmunida ishlatalgan. Fors-tojik mumtoz adabiyoti tarkibidagi janrlar qatori noma janrida ham X-XV asrlarda adabiy yodgorliklar yaratildi. Ular xarakter jihatidan ikki guruhgaga bo‘linadi:

1. *Katta epik asarlar tarkibidagi nomalar.* Bunga Faxriddin Gurgoniy “Vis va Romin”, Nizomiy “Xusrav va Shirin”, Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostonlari tarkibidagi nomalar.

2. *Masnaviy yo‘lida yozilib, maxsus ishq-muhabbat mavzusidagi nomalardan tashkil topgan asarlar.* Bunga Avhadiy “Dahnoma”, Xoja Imomiddin Faqih Kirmoniy “Muhabbatnama”, Ibn Imodning “Dahnoma” kabi asarlari kiradi.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик, 16-том. – Т.: Фан, 2000. -93 б.

<sup>2</sup> Алпомиш. – Тошкент: 1987. 57-бет., Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 11-жилд. 2007-йил. 94-б., N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sano – standart, 2017. -321 б., Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Тошкент: Фан, 1992. -8 б.

<sup>3</sup> Шукурова М.Ш., Капранова А., Хшима Р., Масуми Н.А. Фарҳангги забони тожик. 1-2-жилд, – Москва: 1969, -867 б.

XII-XIV asrda fors-tojik tilida yaratilgan nomalarning mazmun-mohiyati va shakl jihatni keyingi adabiy durdonalarga manba sifatida xizmat qilgan. Xususan, nomalar davr talabi asosida badiiy asar tarkibidan alohida chiqib, janr sifatida shakllanish bosqichi boshlanadi. Noma janrida asosan sevgi, muhabbatga urg'u berilib, muhabbat mavzusidagi ko'plab badiiy asarlar vujudga keldi. Bularidan Avhadiy, Xoja Imomiddin Faqih Kirmoniy, ibn Imodlarning "Dahnama" asarlari o'sha davr tili (fors) va mavzusi(sevgi-muhabbat)da yaratilgan noma janrining go'zal namunasi ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega. G.Begdeli Avhadiy tomonidan 1306-1307 (hijriy 706) yilda yaratilgan "Dahnama" haqida fikr yuritib, "Asar o'zining tuzilishi, obrazlari, badiiy xususiyatlari jihatidan noma janridagi yangi original asardir<sup>1</sup>", – deya ta'kidlaydi. "Ozarbayjon adabiyoti tarixi" darsligida yozilishicha, "Davlatshoh Samarcandiy Avhadiyning o'n besh ming baytdan iborat bir devoni borligi haqida xabar beradi. Ba'zi tazkiralarda bu devondan parchalar, g'azal va qasidalar berilgan.<sup>2</sup> XIV asr oxirlariga kelib yana bir nomanavis adib ijodi yuzaga keldi. Bu Xoja Imod Faqih Kirmoniyning o'g'li ibn Imodning "Dahnama" asari edi. Shoир bu asari bilan "noma"ni maxsus adabiy janr darajasiga ko'tardi. Bu bevosita Avhadiy asarining ta'sirida yuzaga kelgan edi. Bu davrda fors-tojik tilida ketma-ket uchta "Dahnama" yaratildi. Natijada, noma maxsus adabiy-badiiy janr sifatida shakllandi.

Birinchi bobning uchinchi fasli «Turkiy xalqlar adabiyotida nomalar takomili» deb nomланади. Mazkur faslda O'zbek adabiyoti tarixida noma janrining dastlabki namunasi bo'lган Xorazmiyning "Muhabbatnomा"<sup>3</sup> hamda unga izdoshlik qilgan Xo'jandiynning "Latofatnomা"<sup>4</sup>, Sayid Ahmad ibn Mironshohning "Taashshuqnoma", hamda Yusuf Amiriynning "Dahnama" asari haqida asosiy ma'lumot va fikr-mulohazalar muxtasar tarzda o'z ifodasini topgan. Bunda har bir nomaning arxitektonikasi va kompozitsiyasidagi mushtarak va farqli jihatlar, ular tarkibida qo'llangan lirik janrlar tarkibi va tartibi xususidagi statistik ma'lumotlar ham aks etgan.

Xorazmiy fors-tojik adabiyotida mavjud nomachilik an'analari: muqaddima, asar yaratilish sababi, nomalar, xotima kabilarga rioya qilgani holda asarning qurilmasi jihatidan ulardan farqli usulda butunlay yangi original ijod namunasini yaratadi. "Asarda an'anaviy muqaddimadan tashqari, noma, g'azal, qasida, fard, qit'a, munojot, masnaviy, voqe', hikoyat kabilar bor"<sup>5</sup>. Xorazmiyning "Muhabbatnomा" asari muayyan an'anaga ko'ra Alloh hamdi bilan boshlanadi. Shundan so'ng shoир Muhammad Xo'jabek bilan ko'rishganini bayon qiladi va ikki turkiy hamda bir forsiy g'azal keltiradi. Bundan tashqari, asarda masnaviy, "Muhammad Xo'jabek madhi" va "Vasful hol" fasllari mavjud. Asarning asosiy

<sup>1</sup> Бегдели Г. Авнадынин haiat ve йарадычылығы. – Бакы. 1962; Микаэл Рафили. Азарбайджанская литература (с древнейших времен до начале XIX в.). – Баку: 1943. -С. 338.

<sup>2</sup> Azarbajyon adabiyoti tarixi. Uch jildd, 1-jild. – Baku: Azarbajyon Ilmlar akademiyasi nashriyoti, 1960. -232 b.

<sup>3</sup> "Мухаббатнома" асари хакида қаранг: Щербак А.М. Огуз-наме. "Мухаббат-наме". – М.: 1959. -С. 126., Хорезми. "Мухаббат-наме". Издание текста.

<sup>4</sup> Ходжанди. Латофат – наме. Фозилов Э. – Тошкент, 1976.

<sup>5</sup> Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Тошкент: Фан, 1992.

qismini nomalar tashkil etadi. Shoir asarni boshida o‘n noma qilib yozmoqchi bo‘ladi, keyin esa yana bir noma qo‘sib, jami o‘n bir noma qiladi. Bu haqda asarda shunday yozilgan:

Bu yerga yetti so‘z ta’xir bo‘ldi,  
Burun o‘n dedim, ul o‘n bir bo‘ldi<sup>1</sup>.

Xo‘jandiy «Latofatnoma»ni yozishda bevosita Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan ilhomlanadi. “Latofatnoma”dagi quyidagi baytlar buning yorqin misolidir:

Muhabbat jomidin ichsang sharobe,  
”Muhabbatnoma”ga aysang javobe...  
Tilimda so‘z, alimda xoma bo‘ldi,  
“Latofatnoma” ham o‘n noma bo‘ldi<sup>2</sup>.

Xo‘jandiy “Muhabbatnoma”ning o‘n nomadan iborat bo‘lgan nusxasiga javob yozgan. Xorazmiy “Muhabbatnoma”sida bo‘lgani kabi Xo‘jandiy “Latofatnoma”sida ham muallif shaxsi faol ishtirok etadi. Xo‘jandiy Xorazmiy “Muhabbatnoma”sidan ijodiy ilhomlangan bo‘lsa ham, kompozitsiya, obrazlar talqini, tabiat manzaralarini yaratishda o‘ziga xoslikka erishdi.

Mazkur janr takomiliga o‘z hissasini qo‘sghan yana bir ijodkor Sayid Ahmad ibn Mironshohdir. Uning “Taashshuqnama” asari Allohga hamd va payg‘ambarga na’t, munojot, kitob sababi, Shohruh Sulton madhi, 10 noma, kitob xatmin aytur, iltimosin aytur kabi qismlardan tashkil topgan. Sayid Ahmadning yaratgan yangiligi shundan iboratki, “u asardagi har bir nomani qurilma jihatidan uch qismdan – noma, g‘azal, so‘zning xulosasi qismlaridan iborat qilib tuzdi va bu holat asardagi nomalarda izchil saqlanadi. Nomalardagi bu uch qism mazmunan bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bir butunlikni tashkil etadi”.<sup>3</sup> Fors-tojik shoiri Ibn Imod singari noma janrida epizmni kuchaytirish yo‘lidan borgan Yusuf Amiriyy oshiq va ma’shuqning ishqiy maktublarini muayyan voqea bilan qolipaydi. Amiriyyning hijriy 823 (1420) yilda yozilgan<sup>4</sup> “Dahnama” asari jami 46 katta-kichik boblarga bo‘lingan bo‘lib, unda masnaviy yo‘lida bitilgan o‘nta nomadan tashqari, g‘azal, fard va hikoyatlar mavjud. “Dahnama” asari o‘zining tuzilishi, undagi boblarni ma’lum reja bilan yozilganligi jihatidan ham boshqa nomalardan keskin farq qiladi. Undagi nomalar 30 baytdan, g‘azallar 7 baytdan, nomani o‘qish jarayoni 25 baytdan iboratdir”.<sup>5</sup>

Bobning “Lirik janrlar tadqiqida nomalarning o‘rni” deb nomlangan to‘rtinchi faslida alohida lirik janrlar tadqiq etilgan ilmiy manbalar hamda mumtoz she’riy janrlarga doir umumiyligi qo‘llanmalarda noma janri namunalariga murojaat etish darajasi o‘rganiladi. Ma’lumki XX asrning II yarmi hamda XXI asrning o‘tgan

<sup>1</sup> Муборак мактублар. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, – Т.: 1987. -35 б.

<sup>2</sup> Муборак мактублар. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, – Т.: 1987. -41 б.

<sup>3</sup> Жамолова М. Ўзбек адабиётида нома жанри. – Тошкент: Фан, 1992. -33 б.

<sup>4</sup> Асарнинг ёзилиш тарихи “зити вожиб” бирикмаси билан берилган.

<sup>5</sup> Шу китоб, -56 б.

davri davomida mumtoz lirik janrlar tadqiqiga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda u yoki bu darajada nomanavislik an’anasiga ham murojaat etiladi. Professor R.Orzibekovning “O‘zbek klassik poeziyasida g‘azal va musammat”<sup>1</sup>, “Lirikada kichik janrlar”<sup>2</sup> monografiyalarida “Muhabbatnoma” tarkibidagi g‘azal, qit’a, fard janrlari namunalariga ham murojaat etilgan. Nomalar tarkibida soqiynoma mazmunidagi masnaviyalar ham mavjud bo‘lib, Odiljon Avaznazarovning “Alisher Navoiy ijodida soqiy obrazi” mavzusidagi dissertatsiyasi va ba’zi maqolalarida, Maqsud Asadovning ayrim maqolasida bu haqda fikr bildiriladi. Xususan, “Sharq yulduzi” jurnalining 2012 yil 5-sonida e’lon qilingan M.Asadovning “Noma va soqiynoma” nomli maqolasida shunday xulosaga duch kelamiz: “... nomalarda soqiy, mayxo‘rlik, may bazmi, undagi urf-odatlar, bazm ishtirokchilari, shuningdek, may idishlari haqida ham o‘ziga xos talqinlar o‘rin olgan. Bu orqali, ijodkorning ishq-muhabbat kechinmalari, ijtimoiy-hayotiy xulosalari, tabiat va inson taqdiri haqidagi chuqur hayotiy-falsafiy mushohadalari o‘z ifodasini topgan. Bu esa, nomalarda keltirilgan soqiynoma mazkur janrning dastlabki ko‘rinishi sifatida baholashga to‘la imkon beradi”<sup>3</sup>. Dissertatsiyada nomalar tarkibidagi lirik janrlarga oid shu kabi fikr-mulohazalar tavsif va tahlil etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Turkiy-o‘zbek she’riyatida noma va g‘azal janri taraqqiyoti”** deb nomlanadi. U uch fasldan tashkil topgan bo‘lib, birinchi fasli (“O‘zbek mumtoz she’riyatida g‘azal janrining shakllanishi va rivoji”)da Sharq she’riyatining asosiy janri bo‘lmish g‘azal, uning turkiy adabiyotda shakllanish va rivojlanish jarayoni va bu jarayonda nomanavislik an’anasining o‘rni kuzatiladi.

Ma’lumki, lirik janrlarning shakllanishi va taraqqiyotida uchta asosiy omil qayd etiladi:

1.Turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelgan ma’naviy qadriyatlari, og‘zaki she’riyati, musiqiy an’analari. Qadimiy obidalar, yozma va og‘zaki manbalar tarkibidagi qo‘shiqlar.

2. Arab, fors-tojik she’riyati aruz vazni orqali turkiy she’riyatga o‘tib, qo‘llanila boshlagan lirik janrlar va shakllar.

3. Iste’dod egalarining badiiy ijod sohasidagi izlanishlari, uslubiy – poetik yo‘nalishda qilgan ixtirolari.

Bu uch omilning har biri ma’lum bir ta’sir natijasida turli yo‘sinda lirikaning boyishida ahamiyatlidir.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida janriy rang-baranglik dastlab didaktik dostonlar tarkibidagi she’riy shakllar (masnaviy, to‘rtlik, qasida) tarzida namoyon bo‘lsa, nomanavislik an’anasi ta’sirida g‘azal, qit’a, soqiynoma, masnaviy, fard singari janrlar tobora mustaqillik kasb eta boshladи.

Turkiy adabiyotdagi nomalarning janr tarkibi va she’rlar soni quyidagi jadvalda berilgan:

<sup>1</sup> Орзивеков Р. Ўзбек классик лирик поэзиясида газал ва мусаммат. -Т., Фан, 1976.

<sup>2</sup> Орзивеков Р. Лирикада кичик жанрлар. -Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.

<sup>3</sup> <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/noma-va-soqiynoma>.

№	Janrlar nomi	Asarlar nomi			
		Xorazmiy “Muhabbatnoma”	Xo‘jandiy “Latofatnoma”	Amiriy “Dahnama”	Sayid Ahmad “Taashshuqnama”
1	Noma (masnaviy)	11 (4,8,11 fors-tojik; 1,2,3,5,6,7,9,10 turkiy) ta	10 ta	10 ta	10 ta
2	G‘azal	6 (1, 6 fors-tojik; 2,3,4,5 turkiy) ta		10 ta	10 ta
3	Soqiynoma	10 ta	10 ta	2 ta	9 ta
4	Voqeaband she’r	10 ta	2 ta	1 ta	
5	Qit’a	1			
6	Fard	1		10 ta	
7	Munozara			14 ta	3 ta
8	Tarje’ (Soqiynoma tarkibida)	9 ta			9 ta
9	Munojot	1 ta			

Jadvaldan ma’lum bo‘ladiki, nomalar tarkibidagi alohida lirik janrlar orasida g‘azal yetakchilik qiladi.

G‘azal janrining shakllanishi va taraqqiyoti masalasini alohida tadqiq etgan olim A.Mirzoev (“Рудаки и развитие газели в X-XV вв.”<sup>1</sup>)ning qayd etishicha, “G‘azalning ilk ko‘rinishlari X asrda yuzaga keldi. Shu davrda Ro‘daki va uning zamondoshlari ijodi tufayli bu janrning takomili yo‘lida ilk jiddiy qadamlar tashlandi”.<sup>2</sup> Mazkur janrning rivojlanishida Avhadiy, Fariduddin Attor va Jaloliddin Rumiy singari tasavvuf adabiyoti namoyandalarining ta’siri katta bo‘lgan. Biroq g‘azal janrining takomili Shayx Sa’diy va Hofiz Sheraziy ijodi bilan bog‘liq. Aynan Shayx Sa’diy “g‘azalning alohida uslubini ishlab chiqdi”.<sup>3</sup>

Ma’lumki, o‘zining ilk shakllanish davridan boshlab g‘azal janrida sevgi-muhabbat, hayotga, insonlarning bir-biriga bo‘lgan tuyg‘ulari o‘z aksini topgan. Ilk g‘azallarda asosiy mavzu muhabbat bo‘ldi. Shayx Sa’diy va Hofiz Sheraziy g‘azallarida esa yangi g‘oya, yangi obraz: “orif”, “rind”, “zolim shoh”, “riyokor shayx”, “voiz” va shu kabi mavzular paydo bo‘ldi. “Aynan Hofiz va uning zamondoshlari ijodida g‘azalning lirik janr sifatidagi har tomonlama rivojlanish jarayoni yakuniga yetdi”.<sup>4</sup>

O‘zbek mumtoz she’riyatida g‘azalning shakllanishi va takomili Nosiriddin Rabg‘uziy, Sayfi Saroyi Ahmadxo‘ja as-Saroyi, Mavlono Qozi Muhsin, Xorazmiy, Atoyi, Sakkokiy, Mavlono Lutfiy va Hofiz Xorazmiy ijodi bilan bog‘liq. Mumtoz she’riyatimizdagи uslublarni ilk marotaba yaxlit holda tadqiq etgan olim Yo.Ishoqovning qayd etishlaricha, “...mumtoz uslubning shakllanishi... Rabg‘uziy

<sup>1</sup> Мирзоев А.М. Рудаки: жизнь и творчество. – М.: Наука, 1968. – С. 242-291.

<sup>2</sup> Шу китоб, 289-бет (Рус тилидан таржима қилинди).

<sup>3</sup> Шу китоб, -277 б.

<sup>4</sup> Мирзоев А.М. Рудаки: жизнь и творчество. – М.: Наука, 1968. – С. 281.

va Xorazmiy davrlaridan boshlangan bo‘lib, Lutfiy ijodiyotida o‘z takomilining oliv nuqtasiga yetdi”.<sup>1</sup>

Fors-tojik g‘azaliyoti ta’sirida o‘zbek tilida ilk g‘azallar yaratgan ijodkor Xorazmiydir. Hofiz Sheraziyning g‘azalnavislik mahoratini chuqur o‘zlashtirgan Xorazmiy o‘z ijodiy faoliyatida uning bu boradagi an’analarini izchil davom ettirdi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si ikki tilda yozilganligi, “Ochunda porsiy daftarlari bor”ligi shoirning har ikki til adabiyotini yaxshi bilishidan dalolatdir.

Xorazmiy asaridagi nomalarda ham, g‘azallarda ham obraz yaratish usuli birdek ko‘rinadi. Bunda nomalarning vasf xarakteriga ega bo‘lgan ishqiy maktublar asosida qurilganligi e’tiborlidir. Bundan tashqari, nomalarda yorning mubolag‘aviy tavsifi katta o‘rin egallaydi. Bu jihatdan u g‘azallarga yaqin turadi. Unda yorning beqiyos go‘zalligi ta’rifi, oshiqning ma’shuqa hajrida chekkan iztiroblari, ma’shuqaning bevafoligi, beparvoligi, zamonadan shikoyat motivlari uchraydi. G‘azalda ham oshiqning ma’shuqaga bo‘lgan sevgi iztiroblari, ma’shuqaning go‘zal obrazi, ma’shuqaning bevafoligidan shikoyat lirik tarzda ifodalanadi. Lekin g‘azalning ma’lum chegarasi mavjud. Nomada esa oshiq va ma’shuqa obrazlari o‘rtasidagi munosabatlar asosiy o‘ringa ega bo‘lib, ularning keng miqyosdagi ruhiy kechinmalari lirik tarzda masnaviy yo‘li bilan beriladi. Ko‘rinadiki, noma janrida g‘azal janriga nisbatan obraz yaratish manba va imkoniyatlari kengdir. Noma tuzilishi jihatdan ham, voqe-a-tafsilotlarni qamrab olish jihatidan ham g‘azaldan farqlanadi. Eng muhimi shundaki, nomalarda lirik tasvir bilan vasf yetakchi o‘rin tutadi.

Ushbu bobning “Turkiy adabiyotda g‘azal janri rivojida nomalarning o‘rni” deb nomlangan faslida noma janri tarkibida g‘azalning o‘rni va mavqeい tadqiq etiladi. Shuni aytish kerakki, XIV asr va XV asrning I yarmi o‘zbek g‘azaliyoti bosqichida inson va unga muhabbat g‘oyasi yetakchilik qiladi. Bu g‘azalnavis ijodkorlardan Xorazmiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy va Gadoiylar ijodida o‘z isbotini topadi. Jumladan, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida keltirilgan g‘azallaridan birida:

Eshitting ersa Yusufning jamolin,  
Sen oyni bo‘yla benuqson yarotti.  
Zihi qodir kim ul bir qatra suni,  
Muhabbat gavharinga kon yarotti<sup>2</sup>.

deya insonga nisbatan muhabbat, uni ulug‘lash va maqtov g‘oyasi keltiriladi. Bunda muhabbat mahbubaga, dunyoga va chinakkam go‘zallikka bo‘lgan sevgi bayon etilgan. Bu davr o‘zbek g‘azaliyotida asosan oshiq, ma’shuqa va raqib obrazlariga ko‘proq urg‘u berilgan. Oshiq ko‘pincha Farhod, Majnun va Vomiq kabi afsonaviy obrazlarga qiyoslangan. Keyinchalik esa bu qahramonlarni an’ana sifatida qo‘llash urf bo‘ladi. Shuningdek, ma’shuqani cheksiz go‘zallik sohibi sifatida jamolini gullarga, quyosh nurlariga, damini Iso nafasiga o‘xhash kabi tashbehlarga murojaat qilingan. Bunday o‘xhatishlarni Xorazmiy ijodida ko‘rish mumkin:

Jahonning fitnasi usruk ko‘zungda,

<sup>1</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: “О‘zbekiston”, 2014. -307 б.

<sup>2</sup> Муборак мактублар. F. Furom номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти – Т.: 1987. 12-13 бетлар.

Ayon Iso dami shirin so‘zungda<sup>1</sup>.

Haqiqatdan ham misralarga e’tibor beradigan bo‘lsak, g‘azalda ma’shuqani oshiq tomonidan juda nozik va go‘zal o‘xshatishlar orqali mohirona tarzda ta’riflab o‘tilgan. Bunda ma’shuqaning ko‘zini fitna, ya’ni aldoqchidek u yondan bu yonga qochishi, so‘zлari Iso nafasidek ekanligi, uning go‘zalligidan hattoki lola ham xijolat bo‘lib so‘lishi kabi o‘xshatish va husni ta’llilar orqali oshiq o‘z ma’shuqasini tavsiflaydi. G‘azallarda keltirilgan o‘xshatishlar qisqartirilgan tarzda yetkazilgan bo‘lib, bunday ta’riflar nomalarda oshiq o‘z ma’shuqasini batafsil ta’riflab o‘tganligida ko‘rish mumkin. Buni Xo‘jandiyning “Latofatnoma” asarida ko‘rishimiz mumkin:

Hitoltek chehrangizdin ko‘k uza badr,  
Yuzung kunduz-u zulfung laylatulqadr.  
Pari paykar nigori sarvqomat,  
Jamolingdin jahon ichra qiyomat<sup>2</sup>.

